



TARIXIY VA TANIQLI SHAXSLAR NOMI HAMDA FAOLIYATINING USMON AZIM IJODIDA QO'LLANISHI

Laziza Boboxo'jayeva Axtamovna

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

boboxojaevalaziza@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8068260>

ARTICLE INFO

Received: 14th June 2023

Accepted: 21th June 2023

Online: 22th June 2023

KEY WORDS

Tarix, Mirzo Ulug'bek, padarkush, Abdullatif, Ziji Ko'ragoniy, Ikromiddin Sirojiddinov, Mo'min Mirzo, Muzaffar Mirzo, Husayn Boyqaro, Xadicha begin, Xondamir.

ABSTRACT

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Usmon Azim ijodi turli mavzularni qamrab olishi bilan o'ziga xosdir. Usmon Azim o'zbek lirik poeziyasini faqat mavzu va g'oyaviy mazmun jihatidangina emas, balki badiiy jihatdan ham yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tardi. Shakl va mazmunning uзвиy birligi uchun kurashdi va yangi-yangi obraz, xarakterlar, peyzaj va portretlar yaratdi, realistik tasvir tendensiylarini rivojlantirdi. Ushbu maqolada uning she'rlarida qo'llangan tarixiy shaxslar hamda tarixiy nomlar tahlil etiladi.

Uzoq tarix silsilasidagi ulug' insonlarning o'tmishda tutgan o'rni va egallagan mavqeyi haqida fikr yuritish hamma zamonlarda ham murakkab kechgan. Zero, insoniyat tarixida jamiyatni o'z qo'li ostida boshqarib, hayotning yana boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatib, o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar haqida atroflicha so'z yuritish chuqur ilmiy mushohada va salohiyatni, keng va teran tafakkur egasi bo'lishni, shu bilan birga xolislikni talab etadi. Tarix va u bilan bog'liq voqeа-hodisalar, buyuk shaxslar haqida mana necha yuz-ming asrlardan buyon so'zlanib kelinadi. Ular haqida deyarli barcha ijodkorlar, yozuvchi va shoirlar asarlar yozishgan va hamon yozishmoqda. Shu xususda Usmon Azim ijodida ham zamonaviy mavzular bilan bir qatorda, tarixiy mavzular ham o'z o'rniga ega. Ijodkorning shu mavzudagi ayrim she'rlarini keltirib o'tish joizdir.

Usmon Azimning "Mirzo Ulug'bekning o'kinchi" she'rida quyidagi misralar yozilgan: "Armonlarim ushalsin deb, senga qaradim osmon". Ma'lumotlarga ko'ra, 1394-yilda Amir Temur Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qiladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha, Amir Temurga nabirasi tug'ilgani haqida xabar keltiriladi va munajjimlar uning hukmdor va olim bo'lishini bashorat qiladi. Temur ushbu xushxabar tufayli Mordin qal'asi qamalini to'xtatadi va uning xalqiga yuklangan tovonni bekor qiladi. Yangi tug'ilgan nabiraga Muhammad Tarag'ay ismi beriladi.

Barchamizga ma'lumki, ulug' allomalardan biri bo'lmish Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy yulduzlar va osmon jismlari ilmiga ulkan hissa qo'shgan. Umrining ko'p qismini shu sirni anglashga, shu bilimlarni xalqqa yetkazishga sarflagan. Allomaning "Ziji Ko'ragoniy" asari



yulduzlar ilmiga bag'ishlanadi. U fan bobida shuhrat qozondi, ammo shaxsiy hayoti achinarli yakun topgan.

*"...Baland bo'lib, past kunimga
Qachon yarading, osmon?
Boshlarimdan to'kkaning u
Yulduzlaring tosh ekan".*

Ushbu misralarga o'xhash Muhammad Yusufning she'ridan parcha keltirish mumkin:

*"Yulduzlarda ekan nigohim,
Bilmadim ne edi gunohim..."*

1449-yilning oktyabri, Makkaga yo'l olgan Movaraunnahrning taxtdan ag'darilgan hukmdori Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning karvonini shom namozi vaqtida bir chopar quvlab yetadi. Abbas ismli navkar yangi hukmdor nomidan Ulug'bekka otdan tushib, bir muddat to'xtab turishni, unga "yarashgulik asbobu anjom hozirlanayotgani"ni aytadi. Mirzo Ulug'bek navkarlari bilan yaqin oradagi kichik qal'aga qo'nadi va olov yoqishni buyuradi. Shu asnoda nogahon bir shaxs hamrohligida ichkariga kirgan Abbas Mirzo Ulug'bekka chang soladi. So'ng uni tashqariga olib chiqib, mash'ala yoniga tiz cho'ktiradi va tarixchi Mirxonning ta'biricha, "shamshirning bir zarbi ila shahidlik darajasiga yetkazadi"...

Odil-u olim podshoh 56 yoshida shu tariqa qatl etiladi. Faqat tinch oqayotgan ariq va mayin esayotgan shamolgina buyuk munajjimning o'limiga sassiz guvoh bo'ladilar... Mirzo Ulug'bek o'limining tarixda bilingan tafsilotlari ana shular.

U o'zini taxtdan ag'dargan o'g'li Abdullatifning buyrug'iga asosan qatl etilganiga ishoniladi. Abdullatifning padarkush sifatidagi qiyofasi esa tarix va adabiyot sahifalarida muhrlanib qolgan. Ammo yaqinda Samarqandda dunyo yuzini ko'rgan kitobda tarixning ana shu muhrini o'zgartiradigan faraz ilgari suriladi. Kitob muallifi, Ulug'bek rasadxonasining sharhlovchisi Ikromiddin Sirojiddinovning aytishicha, Ulug'bekni o'ldirishga Mo'g'luq xon farmon beradi va Abdullatifga to'nkaydilar. Pahlavon Sodiq kitob muallifi hamda tarixchi olim Ashraf Ahmedovlar bilan ana shu faraz haqida suhbatlashgan.

*"Meni asir oldilar.
Bedovimning badani
Asabiy titrar, uchar...
Olloh, karaming qani?"*

Ushbu misralar Usmon Azimning "**Mo'min Mirzoning so'nggi qo'shig'i**" she'ridan aks etgan.

14-asrning 90-yillari o'rtalariga kelib temuriylar sultanatida ijtimoiy-siyosiy tanglik kuchaya boshlaydi. Temuriylar xonadonida hukmdor o'g'llari o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar esa bu tanglikni yanada kuchaytiradi. Natijada, aka-ukalar, qarindosh-u qondoshlar toj-taxt talashib, bir-biri bilan ayovsiz kurashadi. O'sha paytda shahzodalar orasidagi munosabatlar, murosa bilan Alisher Navoiy shug'ullanar edi. Shunday fitnalarning qurbanlaridan biri Husayn Boyqaroning neverasi, Badiuzzamonning o'g'li — Muhammad Mo'min Mirzo (1486—1497). Aqli, ziyrak va jasoratlil bo'lgan. 11 yoshida Astrobodda otasi o'rnila hokim. Mo'min Mirzo amakisi Muzaffar Husayn Mirzo Astrobodni undan tortib olmoq niyatida qo'shin bilan kelayotganini otasi yuborgan maktub orqali bilgach, shoshilinch ravishda jangga hozirlanib, shahar tashqarisiga chiqib jang qilgan. Lekin, kuchlar teng



bo'limgani tufayli Mo'min Mirzo asirga olinib, Hirotga jo'natilgan va Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'yilgan. Husayn Boyqaroning xotini Xadicha begin o'g'li Muzaffar Mirzoning taxtni egallashida asosiy g'ov deb Mo'min Mirzoni bilardi. U vazir Nizomulmulk bilan kelishib, Husayn Boyqaroning qattiq mastligidan foydalanib, Alisher Navoiyning ixlos qo'ygan shogirdi Mo'min Mirzoni zudlik bilan qatl qilish haqidagi farmonga muhr bostirib olgan.

*"Bu tun bobom g'o'ldirab,
Shirkayf boqib jahonga.
Muhr bosar qonsirab,
Qaltiragan farmonga"...*

Bu qonli voqealar ro'y bergen ma'shum kunlarda Navoiy davlat ishlari bilan Mashhadda edi. Shoир dahshatli xabardan qattiq larzaga tushdi. "Shayx Majdiddin Bag'dodiyning Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilishi Chingizzon tomonidan qirg'inni boshlab bergen bo'lsa, Mo'min Mirzoning o'ldirilishi ham xuddi shunday bo'lajak", deb bir necha bor takrorlaganini tarixchi Xondamir eslatib o'tgan.

Tarix ana shunday kunlarning guvohi bo'lgan. Usmon Azim nafaqat o'z lirik asarlarida, balki nasriy, dramatik asarlarida ham bular haqida yozgan. Bugungi o'zbek she'riyati taraqqiyotiga Usmon Azimning munosib hissa qo'shgani shubhasiz. Shoир, o'zining g'oyat turli janrlardagi asarlari bilan adabiyotimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi, uni yangi badiiy tafakkur mevalari bilan boyitdi, tarixiy davr va zamonaviy dunyo orasida ko'prik bo'luvchi asarlar taratmoqda. Usmon Azim she'riyati o'zbek xalqining milliy madaniyati, ruhiy olami, orzu - istaklari bilan uzviy bog'langan.

References:

1. Адабий турлар ва жанрлар (Тарихи ва назариясига оид) III жилдлик. 2жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 246 б.
2. Азимов У. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
3. Усмон Азим "Бир парча осмон". Т.: Factor Press, 2022 – 384 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2001. –560 б.
5. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi>
6. https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2012/12/121225_latin_ulugbek_death
7. <https://oz.sputniknews.uz/>